

SEYSMOTEKTONIKANING ILMIY FAN SIFATIDA SHAKILLANISHI

Dilshodova Munisa Dilshod qizi*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat**Universiteti Geologiya yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya: *Seysmotektonika geologiya bilan aloqador bo'lgan tektonika va seysmologiya fanlari bilan bog'liq bo'lgan fan hisoblanib, zilzilalar va ulardan keladigan hayflarni o'rganish va bashorat qilishda muhim rol o'ynaydi. Bugungi maqolamizda uning ilmiy fan sifatidagi o'рни va muhim atamalarini yoritib beramiz.*

Kalit so'zlar: *Seysmotektonika (seismos) — tebranish téstinosos — qurilish) — yer qobig'ining zamonaviy tektonik jarayonlarining seysmik ko'rinishlarini o'rganuvchi fan bo'lib, hududlarning seysmikligi va tektonikasining namoyon bo'lishi o'rtasidagi O'zaro bog'liqlikni o'rganuvchi geologiya bo'limi sifatida qaraladi.*

Seysmotektonik tadqiqotlarning asosiy ob'ektlari: mezozoy va kaynozoy geosinklinallari fonida paydo bo'lgan Alp va Tinch okean burmalari mintaqalarining epigeosinklinal orogenlari; zamonaviy geosinklinallar (dastlabki orogen jarayon fazasida); epiplatforma orogenlari (ilgari konsolidatsiyalangan tuzilmalar ichidagi tektonik harakatlarning antropogen faollashuvi hududlari); zamonaviy kontinental va okean riftlari; Benioff zonalari; so'nggi tektonik harakatlarning jadal namoyon bo'lgan hududlaridir.

Seysmotektonik tadqiqotlarning o'ziga xos usullari esa geofizik, geodezik (shu jumladan GPS yordamida), kosmo-geologik ma'lumotlar, seysmotektonik shakllanishlarni tiplashtirishga rasmiylashtirilgan yondashuvlar, shuningdek, tarixdan oldingi kuchli va halokatli zilzilalar to'g'risidagi ma'lumotlarni olish, seysmik rejimni urganish uchun paleoseysmogeologik tadqiqotlar qo'llaniladi.

O'rta Osiyo va O'zbekiston hududidagi seysmik ko'rinishlar va tektonik elementlar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash bo'yicha ishlarning birinchi natijalari o'tgan asr boshlarida rus tadqiqotchilari tomonidan e'lon qilingan: Andijon zilzilasi 03.12.1902y (O.Chernishev, M.Bronnikov, V.Veber 1910y), Kebin zilzilasi 22 12.1910. (K.I.Bogdanovich, I.M.Kark, B.Ya.Korolkov, D.I.Mushketov 1914) va boshqalar) O'rta Osiyo hududining rus tadqiqotchilari tomonidan o'rganilishiga Sobiq Ittifoq davrida yangi konlarni ochish bilan bog'liq bo'lgan ekspeditsiyalar sabab bo'lgan.

Shunday qilib, seysmotektonika fanlararo bilim sohasi bo'lib, zamonaviy geodinamik jarayonlarni, faol (jonli) yoriqlarni, yer qobig'ining kuchlanish-deformatsion holatining

xususiyatlarini, zamonaviy va qadimgi (paleo) kuchli va halokatli zilzilalar bilan bog'liq bulgan qoldiq deformatsiyalarni urganadi, ko'p funksiyali seysmotehtonik modellar yaratadi va fanning fundamental tarkibiy qismi bo'lgan boshqa yechimlarni o'rganadi.

Seysmotehtonikaning amaliy ahamiyati. Seysmotehtonik tadqiqotlar ayniqsa muhim ob'ektlar-atom va gidroelektrostansiyalar, magistral quvurlar, ko'priklar, aerodromlar va boshqalarni, shuningdek, turli xil ijtimoiy va ishlab chiqarish ob'ektlarini loyihalash va qurishda muhandislik-geologik tadqiqotlarni o'tkazishda majburiydir. Demak bu yerda seysmotehtonikaning Muhandislik geologiyasida tutgan o'rni beqiyos ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Seysmotehtonika usullarini ishlab chiqishda taniqli sovet olimlarining hissasi katta: Moskva davlat universiteti professori G.P. Gorshkov, SSSR Fanlar akademiyasining muxbir a'zolari: I.E. Gubin, V.P. Solonenko, N.A. Florensov, geologiya.-mineralogiya. fanlari doktorlari: B.A. Petrushevskiy, R.N. Ibragimov va boshqalar, shuningdek, rossiyalik mutaxassislar: geologiya-mineralogiya fanlari doktorlari G.I. Reisner, V.G. Trifonov, geologiya fanlari doktori, professor E.A.Rogojin va boshqalar. Xorijiy tadqiqotchilardan R.E.Uolles, V.P.Irvin, R.D.Braun, V.L. Elsworth, Ambraseys, N.N., Melville, C.P., Bolt, B.A., Gordon, R.G., Stein, Rixter, C.F., Sayks, L., Yeats, R.S., Allen, C.R va boshqalar bu fanning rivoji uchun xissa qo'shishgan.

O'zbekiston hududida ham tektonikasi o'rganilib olimlar tomonidan kitob shakliga keltirildi. O'zbekiston hududida seysmiklikning tektonika bilan bog'lanishiga bag'ishlangan "Toshkent viloyati shimoli-sharqiy qismining tektonikasi va seysmikligi" nomli birinchi asar N.P Vasilkovskiy. va M.P. Repnikov tomonidan 1940 yilda chop etildi . Va faqat yigirma to'rt yil o'tgach, 1964 yilda. O.A Rijkov.ning "O'zbekiston seysmotehtonikasi to'g'risida" maqolasi Markaziy Osiyo mintaqaviy seysmiklik masalalari kitobida nashir etildi.

O'zbekiston SSR FA Seysmologiya institutining birinchi direktori, akademik G.A.Mavlyanov rahbarligida O'zbekiston hududida o'tgan asrni 60yillarini oxirida, 26.04.1966 mashxur Tooshkent zilzilasidan so'ng seysmotehtonika bo'yicha maqsadli ilmiy tadqiqotlar boshlandi. Institutda seysmologik, geodinamika, petrofizika, seysmologik-muhandislik va boshqa yo'nalishlar bilan bir qatorda, seysmotehtonik tadqiqotlarga ham asos solindi. Ular orasida seysmotehtonika laboratoriyasi mudiri, geologiya-mineralogiya fanlari doktorlari, prof. A.R.Beruniy nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti laureati R.N. Ibragimov Seysmologiya institutining sobiq direktorlari-O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi K.N Abdullabekov, geologiya-mineralogiya fanlari doktori F.F Zieutdinov lar, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor

R.A.Umurzoqov, va geologiya-mineralogiya fanlari nomzodlari: Yu.M.Sodiqov, U.O.Nurmatov, M.T.Usmonova, A.K Xodjaevlar bor edi.

Aynan mana shu seysmotektonika bor-yo'g'i bir necha o'n yilliklar ichida o'z maqsadi, vazifalari, ob'ektlari va tadqiqot usullariga ega zamonaviy ilmiy yunalish sifatida shakllangan. U yangi mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida shakllanib, katta qudratli geologiya daraxtidan munosib o'rin egalladi va murakkab fundamental va amaliy masalalarni muvaffaqiyatli hal etib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://involta.uz/index.php/iv/article/view/702>
2. Палеосейсмология. Том-1. Под редакцией Джемса.П. Мак-Калпина. Научный мир, издание на русском языке, оформления, приложения 2011
3. Сейсмогеология Тянь-Шаня (в пределах территории Кыргызстана и прилегающих районов) А.М.Корженков. Бишкек. Илм-2006
4. Живая тектоника, вулканы и сейсмичность станового нагорья В.Н.Солоненко Издательство "Наука" Москва-1966